## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



# ANDIJON VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

## 2024- YIL YANVAR-MART

## 2024- yil 1-aprel holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 704 |
| Xonobod sh. | 40 |
| Oltinko‘l t. | 106 |
| Andijon t. | 149 |
| Baliqchi t. | 73 |
| Bo‘ston t. | 96 |
| Buloqboshi t. | 60 |
| Jalaquduq t. | 41 |
| Izboskan t. | 95 |
| Ulug‘nor t. | 42 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 55 |
| Asaka t. | 178 |
| Marhamat t. | 85 |
| Shahrixon t. | 147 |

2024- yilning 1-aprel holatiga Andijon viloyatida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 1 994 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya’ni 704 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarning 35,3 % i Andijon shahrida joylashgan.




**Qurilish korxonalari soni, birlikda**



Shuningdek, Andijon shahrida 704 ta (Andijon viloyati bo‘yicha ularning jami soniga nisbatan 35,3 %), Andijon tumanida – 149 ta (7,5 %) qurilish korxonalari mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichga ega.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

*hajmi mlrd. so‘mda va o‘sish sur’ati*




2024-yilning yanvar-mart oyilarida, Andijon viloyatida jami 1 479,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 113,9 % ni tashkil etdi.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

*o‘sish sur’ati o‘tgan yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m*



# 2024- yilning yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 63,5 % i yoki 939,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**81,4** mlrd. so‘m

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 739,9 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 17,0 % ni tashkil etdi.

**8,7 %**

**62,8 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 2 355,6 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 54,1 % ni tashkil etdi.

**590,1** mlrd. so‘m

**267,5** mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 259,2 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 28,9 % ni tashkil etdi.

**28,5 %**



## 2024- yilning yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

**mlrd. so'mda**

| | 2023-yil | 2024-yil | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo'yicha jami** | 771,6 | 939,0 | 100,0 |
| Andijon sh. | 278,2 | 317,3 | 33,8 |
| Xonobod sh. | 23,8 | 26,9 | 2,9 |
| Oltinko'l t. | 29,1 | 47,0 | 5,0 |
| Andijon t. | 101,3 | 112,8 | 12,0 |
| Baliqchi t. | 14,6 | 20,3 | 2,2 |
| Bo'ston t. | 33,6 | 36,4 | 3,9 |
| Buloqboshi t. | 13,1 | 17,8 | 1,9 |
| Jalaquduq t. | 28,3 | 41,7 | 4,4 |
| Izboskan t. | 26,8 | 37,0 | 3,9 |
| Ulug'nor t. | 13,9 | 16,9 | 1,8 |
| Qo'rg'ontepa t. | 25,0 | 28,3 | 3,0 |
| Asaka t. | 26,2 | 38,2 | 4,1 |
| Marhamat t. | 39,2 | 48,5 | 5,2 |
| Shahrixon t. | 68,6 | 79,0 | 8,4 |
| Paxtaobod t. | 27,2 | 40,0 | 4,3 |
| Xo'jaobod t. | 22,5 | 31,0 | 3,3 |

2024-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Andijon shahri (317,3 mlrd. so'm), Andijon tumani (112,8 mlrd. so'm), Shahrixon tumani (79,0 mlrd. so'm) va Marhamat tumani (48,5 mlrd. so'm) qayd etildi.

## Yillar kesimida yangi qurilish ishlari

*jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so'm*

| | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2024-y. |
|---|---|---|---|---|---|
| mlrd. so'm | 523,2 | 602,3 | 726,4 | 771,6 | 939,0 |
| % | 68,7 % | 61,1 % | 60,9 % | 63,5 % | 63,5 % |

# 2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

**O‘sish sur’ati**




**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo‘jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar kiritiladi.




**999,9**
**mlrd. so‘m**

**Bino va inshootlar qurish**




**297,4**
**mlrd. so‘m**

**Fuqarolik obyektlarini qurish**




**181,9**
**mlrd. so‘m**

**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari**

2024-yilning yanvar oyida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:
- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 67,6 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 20,1 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 220,5 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 12,3 % ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,7 % ni tashkil etdi.

# 2024- yilning yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy koʻrsatkichlari

*Korxonalar turlari boʻyicha*

| | | |
|---|---|---|
| **1,1** mlrd. soʻm ▲ 14,7 % | **731,3** mlrd. soʻm ▲ 136,6 % | **267,5** mlrd. soʻm ▲ 356,9 % |
| **Yirik qurilish tashkilotlari** | **Kichik korxona va mikrofirmalar** | **Norasmiy sektor** |




***Jami bino va inshootlarni qurish* - 999,9 *mlrd. soʻm***

Bino va inshootlarni qurish boʻyicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,1 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,0 % punktga kamayib 73,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,6 % punktga koʻpayib, 26,8 % ni tashkil etdi.

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, “Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish faoliyati boʻyicha oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi”** koʻrsatkichi qoʻllaniladi.

# 2024- yilning yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi




*Ma'lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Shahrixon tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 77,8 % i), Pahtaobod tumani (75,7 %) Xo'jaobod tumani (71,7 %)da kuzatildi.



Paxtaobod tumani




Shahrixon tumani



Xo'jaobod tumani

# 2024- yilning-mart oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy koʻrsatkichlari

*Korxonalar turlari boʻyicha*

| Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
|---|---|---|
| **549,4** mlrd. soʻm | **242,4** mlrd. soʻm | **0,0** mlrd. soʻm |
| ▲ 4,3 m | ▲ 186,4 % | ▲ |









***Jami fuqarolik obyektlarini qurish* - 297,4 *mlrd. soʻm***

Fuqarolik obyektlarini qurish boʻyicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 18,5 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,5 % punktga koʻpaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 81,5 % ni tashkil etib 9,0 % punktga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,5 % punktga kamaydi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yoʻllari, koʻchalar, koʻpriklar va tunnellar, temir yoʻllar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sugʻorish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi ogʻir konstruksiyalarni qurish kiradi.

# 2024- yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik obyektlarini qurish




*Ma’lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Xonobod shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 30,6 % i), Oltinko‘l tumani (30,2 %) va Andijon tumani (24,7 %)da kuzatildi.



Xonobod shahri



Oltinko‘l tumani



Andijon tumani

# 2024- yilning yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish asosiy koʻrsatkichlari

*Korxonalar turlari boʻyicha*

**9,6**
mlrd. soʻm
31,6 m

**Yirik qurilish tashkilotlari**




**172,3**
mlrd. soʻm
89,3 %

**Kichik korxona va mikrofirmalar**




***Jami ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari* - 181,9 *mlrd. soʻm***

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,1 % punktga koʻpaydi va 5,3 % ni tashkil etdi.Qolgan 94,7 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,1 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, boʻyoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqogʻozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni oʻz ichiga oladi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




Ma’lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinko‘l tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 19,2 % i), Xonobod shahri (18,3 %) va Boston‘tumanida (15,2 %) kuzatildi.



Oltinkol‘ tumani



Xonobod shahri



Bo‘ston tumani

# 2024- yilning yanvar-mart oylarida korxonalar turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so‘mda*

| | |
|---|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari | 81,4 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar | 1130,3 |
| Norasmiy sektor | 267,5 |

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

## Jami hajmga nisbatan ulushi

| Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
|---|---|---|
| 5,5 % | 76,4 % | 18,1 % |
| 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda – **406,5** % | 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda – **105,4** % | 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda – **130,5** % |

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

*jamiga nisbatan ulushi*




**2023- y.**




**2024- y.**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 81,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 406,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,9 % ga ko‘payib, 5,5 % ni tashkil etdi.

**Xo‘jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

***Jami yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi*** **- 81,4** ***mlrd. so‘m***

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

*oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m*



# 2024- yilning yanvar-mart oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar

## *Hududlarning kesimida*






*Ma’lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Jalaquduq tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 23,1 %i), Ulugnor tumanida (17,6 %) va Oltinko‘l tumanida (13,4 %) qayd etildi.

## *Jamiga nisbatan ulushi*




Ulugnor tumani



Oltinko‘l tumani




Jalaquduq tumani

## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2024-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy koʻrsatkichlari

*jamiga nisbatan ulushi*




**2023- y.**




**2024- y.**

2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 76,4 % i toʻgʻri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,8 % punktga kamaydi.

Shuningdek, ular hissasiga toʻgʻri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,4 % ni tashkil etgan holda 1 130,3 mlrd. soʻm miqdorida qayd etildi.

***Jami kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi*** **- 1 130,3** ***mlrd. soʻm***

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

*oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. soʻm*



# 2024- yilning yanvar oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

*Hududlar kesimida*






*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahriga (445,6 mlrd. so‘m), Andijon tumani (157,4 mlrd. so‘m), Shahrixon tumaniga (96,7) to‘g‘ri keldi.

## *Jamiga nisbatan ulushi*



Andijon shahar



Andijon tumani



Shahrixon tumani

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor
### *Jamiga nisbatan ulushi*




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 18,1 % ni yoki 267,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 130,5 % ga yetdi.

Shundan 229,9 mlrd. so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 133,8 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 17,2 mlrd. so‘mni va 119,0 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta’mirlash ishlari 20,4 mlrd. so‘mni va 108,8 % ni tashkil etdi.

## Norasmiy sektor qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi
*oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m*



# 2024- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

*Hududlar kesimida*






*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahriga (35,9 mlrd. so‘m), Asaka tumanida (39,9 mlrd. so‘m) va Jaquduq tumanida (22,5 mlrd. so‘m ) qayd etildi.

## *Jamiga nisbatan ulushi*



Andijon shahar




Jalaquduq tuman




Asaka tuman

# Mulkchilik shakli nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

*Jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so‘m*

## HUDUDLAR KESIMIDA







***Ma’lumot uchun:*** nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod shahrida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i), Paxtaobod tumanida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,0 % i) va Marhamat tumanida (ushbu hududagi umumiy qurilish ishlarining 99,1 % i) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

| Andijon sh. | Andijon tuman | Buloqboshi tuman | Asaka tuman | Shahrixon tuman |
|---|---|---|---|---|
| 61,3 mlrd. so'm | 10,3 mlrd. so'm | 1,3 mlrd. so'm | 2,5 mlrd. so'm | 3,8 mlrd. so'm |
| 12,0 % | 5,8 % | 4,8 % | 4,0 % | 3,1 % |

**2024-yil yanvar-mart: 87,9** *mlrd. so'm*

## Hududlar kesimida




***Ma'lumot uchun:*** davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Andijon shahrida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 12,0 % i), Andijon tumani (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 5,8 % i) Buloqboshi tumanida (ushbu hududagi umumiy qurilish ishlarining 4,8 % i) qayd etildi

*Jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so'm*

| 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2024-y. |
|---|---|---|---|---|
| 32,4 | 40,0 | 48,8 | 28,3 | 87,9 |
| 66,4 % | 113,1% | 84,7% | 52,2% | 293,1% |

# USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta’mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o‘zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta’minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o‘rnatish, devorlarni ko‘tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o‘ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko‘rsatadi yoki ish jabhasini ta’minlaydi, ularni qabul qiladi va to‘lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlari** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog‘liq chuqur qidiruv burg‘ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo‘yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug‘ullanuvchi burg‘ulash tashkilotlarini o‘z ichiga oladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi**
**Tel. 74 228-29-37 (1161)**